

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

У.Р.Шадиев

Стратегическое планирование устойчивого развития туризма: международный опыт и рекомендации для Узбекистана 6

FALSAFA

G.G'.G'affarova

Raqamlashtirish jarayonining o'ziga xos xususiyatlari 15

Q.A.Pulatov

Jamiyatning huquqlari va imkoniyatlarini kengaytirish kontekstida sekulyar fikrlashning asosiy xususiyatlari va tarixiy shart-sharoitlari 20

J.A.Kayumov

Ijtimoiy xavfli harakatlarga moyil talabalar bilan individual ishlashda xorijiy tajribalardan foydalanish masalalari 25

K.P.Islamova

Sadridin ayniy asarlarida jadidchilik faoliyatini jamiyat hayotiga kirib kelish shart-sharoitining yoritilishi 28

M.K.Soipova

Fazl ibn Ahmad ta'limotida jon tushunchasinging falsafiy tahlili 33

O.T.Sharipova

Barkamol avlod tarbiyasida komil inson g'oyasining Xojagon ta'limoti asosidagi zamonaviy talqini 37

I.A.Suvanov

Axborot tahdidlarning namoyon bo'lishi va unga qarshi kurash zarurati 42

N.I.Hamroyev

Muhammad Abdo qarashlarida ayollar masalasi 47

A.A.Salmonov

Inklyuziv jamiyatning ijtimoiy-falsafiy mazmuni 54

B.M.Madaminov

Axloqiy tarbiyada milliy qahramonlik tuyg'usini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy tahlili 59

F.S.Qosimov

Inson kapitalini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy zarurati va ahamiyati 62

J.M.Kholmuminov, D.R.Komilov

Yusuf Khas Hajib's worldview: philosophical analysis 70

X.J.Toshpo'latov

Jamiyatda viktimologik profilaktikani amalga oshirishning istiqboldagi strategik yo'nalishlari 74

M.M.Daliyeva

O'zbek xalqining adabiy merosida ekologik mas'uliyat va fidoyilik fazilatlarining analitik tahlili 78

S.X.Tolibova

Oiladagi obyektiv omillarning shaxs ma'naviy fazilatlarini shakllanishiga o'rni 81

U.M.Maniyozov

Innovatsiya tushunchasining mazmun-mohiyati, ilmiy talqinlari va ijtimoiy mohiyati 85

O.M.Karimov

Ijtimoiy-falsafiy omil sifatida mehnat erkinligi va uning insoniy taraqqiyotdagi o'rni 90

O'.M.Xamrakulov

Yoshlarda vatanparvarlik tuyg'ularini yuksaltirishning nazariy-metodologik asoslari 93

S.X.Mukarramov

Yangi O'zbekistonda rahbar kadrlar tayyorlashda boshqaruv madaniyatini rivojlantirishning konseptual va aksiologik asoslari 99

D.S.Ermatov

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy mentalitet shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarning falsafiy tahlili 103

F.M.Abdillazov

Kambag'allik fenomenining jamiyat hayotida namoyon bo'lish shakllari va uni qisqartirish



UO'K: 101.1

YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOY MENTALITET SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNING FALSAFIY TAHLILI**ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ФАКТОРОВ, ВЛИЯЮЩИХ НА ФОРМИРОВАНИЕ ОБЩЕСТВЕННОГО МЕНТАЛИТЕТА НОВОГО УЗБЕКИСТАНА****PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF FACTORS INFLUENCING THE FORMATION OF SOCIAL MENTALITY IN NEW UZBEKISTAN****Ermatov Doniyor Saitqulovich**

mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya

Maqolada Yangi O'zbekistonda ijtimoiy mentalitet shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarning nazariy-metodologik asoslari, Yangi O'zbekistonda ijtimoiy mentalitet shakllanishiga ta'sir etuvchi mexanizmlari va texnologiyalarini takomillashtirishning samaradorligi o'rganilgan. Shuningdek, Yangi O'zbekistonda ijtimoiy mentalitet shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarning falsafiy tahlil qilingan.

Аннотация

В статье исследуются теоретико-методологические основы факторов, влияющих на формирование общественного менталитета в Новом Узбекистане, эффективность совершенствования механизмов и технологий, влияющих на формирование общественного менталитета в Новом Узбекистане. Также проводится философский анализ факторов, влияющих на формирование общественного менталитета в Новом Узбекистане.

Abstract

The article studies the theoretical and methodological foundations of the factors influencing the formation of social mentality in New Uzbekistan, the effectiveness of improving the mechanisms and technologies influencing the formation of social mentality in New Uzbekistan. Also, a philosophical analysis of the factors influencing the formation of social mentality in New Uzbekistan is carried out.

Kalit so'zlar: ijtimoiy mentalitet, modernizatsiya, innovatsiya, mexanizm, texnologiya, xavfsizlik, siyosiy, diniy, etnik, milliy, mentallik, inson ongi, effektiv, affektiv.

Ключевые слова: социальная ментальность, модернизация, инновация, механизм, технология, безопасность, политический, религиозный, этнический, национальный, менталитет, человеческое сознание, эффективный, аффективный.

Key words: social mentality, modernization, innovation, mechanism, technology, security, political, religious, ethnic, national, mentality, human consciousness, effective, affective.

KIRISH

Bugungi kunda jahonda uchinchi ming yillik raqamli texnologiyalarning rivojlanish davri sifatida ijtimoiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatdi. Davr ruhining o'zgarishi texnokratik tafakkurning shakllanishini taqozo etdi, bu esa mentalitetda o'z ifodasini topdi. Odamlar uchun nafaqat bilim, balki ulardan foydalanish imkonini beruvchi texnologiyalar ijtimoiy hayotning tarkibiy qismiga aylandi. Jismoniy mehnatga qaramlikning aqliy mehnat bilan almashinishi ijtimoiy mentalitetda o'zgarishlarni vujudga keltirdi. Ayni shu sababli, XXI asr ijtimoiy mentalitet va milliy o'zlikni anglashga asoslangan mafkuraviy kurash o'z ahamiyatiga ko'ra boshqa barcha ma'naviy-axloqiy qadriyatlardan o'zib ketgan asr sifatida tavsiflanmoqda. Bu ijtimoiy mentalitetda milliy o'zlikni anglash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarining uyg'unligini ta'minlagan holda, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy mo'ljallarini, tafakkur yangilanishini nazariy-falsafiy jihatdan tadqiq etishni kun tartibiga qo'yimoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ijtimoiy mentalitet shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarning nazariy-metodologik asoslari va takomillashtirish masalalari, ijtimoiy, ma'naviy-mafkuraviy, huquqiy, axborot-psixologik aspektlari V.S.Alekseyev, I.V.Apostolova, A.K.Baxtiyarov, N.K.Vaxtomin, YE.A.Volkova, T.M.Gurevich A.N.Krichevets, S.S.Neretin, N.A.Simonyan M.X.Xodjarov, A.V.Shestopal, M.N.Abdullayeva,

M.Bekmurodov, A.Begmatov, A.M.Jalolov, Sh.O.Madayeva, F.Atamurodova, G.X.Rasuleva, E.X.Rasulev, J.T.Tulenov, A.F.Fayzullayev, N.A.Shermuxamedova kabi olimlarning ilmiy ishlarida tahlil etilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Milliy o'zlikni anglash ijtimoiy rivojlanishning obyektiv sharoitlarida shakllanadi va rivojlanadi. Vatanga sadoqat milliy o'zlikni anglashning shakllanishi va rivojlanishi uchun muayyan zamin yaratadi va u ijtimoiy mentalitetda o'z ifodasini topadi. Hududiy birlik millat milliy o'zligining shakllanishi va rivojlanishi omili sifatida, yana shu bilan ham muhimki, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotning markazlashuvi aynan muayyan hududda yuz beradi. Hozirgi davrda o'zbek xalqi rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, uning ma'naviy faolligi milliy uyg'onish yo'llarini izlash, milliy o'zlikni anglashni rivojlantirish va takomillashtirishning bosh omiliga aylangan va ular o'z xalqi tarixini, uning madaniyati va ma'naviyatini chuqur bilish va tushunishga asoslangan taqdiridagina qudratli kuchga aylanadi. Milliy o'zlikni anglash umuman olganda o'zining mazkur xalqqa mansubligini tushunib yetish, uning boshqa xalqlar orasidagi o'rni va ahamiyati haqida tasavvur hosil qilish demakdir. Respublikada tub ijtimoiy o'zgarishlar yuz berayotgan davrda milliy mafkura g'oyasini mustahkamlash o'zbek xalqining milliy o'zlikni anglash jarayoni bilan uzviydir. Milliy o'zlikni anglash, ijtimoiy mentalitetning ma'naviy elementi, yangi iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va axloqiy munosabatlarning vujudga kelish omili sifatida, ayniqsa bo'rtib namoyon bo'ladi. Milliy uyg'onishda inson omili rolining faollashuvi ijtimoiy mentalitetni nazariy jihatdan teran va har tomonlama anglab yetishni taqozo qiladi.

Shu bilan bir vaqtda, eski tuzumdan qolgan andozalar va ayrim omillar kishilar ijtimoiy mentalitetida milliy o'zlikni anglashning mohiyati va namoyon bo'lish shakllarini o'rganishga monelik qiladi. Hozirgi vaqtda sobiq sho'ro davriga xos bo'lgan mafkuraviy bir yoqlamalik, ijtimoiy ongning torligidan ma'naviy qadriyatlarni yanada kengroq tushunishga, umuminsoniyqadriyatlarni, inson huquqlarining ustunligini tan olishga o'tish jarayonlari yuz bermoqda. "Milliy o'zlikni anglash millatlar hamjihatligi, ularning o'zaro munosabatlarining ijtimoiy ongdagi in'ikosidir". Bunda ijtimoiy ziddiyatlar sirtmog'iga o'ralib qolmaslik, milliy o'zlikni anglashning shakllanishi va rivojlanishiga, olimlarning kayfiyatiga ta'sir ko'rsatuvchi progressiv va salbiy omillarni ajrata bilish muhimdir. Hozirgi vaqtda yuz berayotgan jarayonlarning asl mohiyatini teran anglab yetish oson ish emas. Yaqin o'tmishda ma'muriy-buyruqbozlik tizimi millatning ma'naviy hayotini o'z hukmi ostiga oldi. Milliy qadriyatlar kommunistik mafkura asosida yaratilgan yagona andozaga solindi. Har bir inson kabi, har bir millat ham o'zining betakrorligi va o'ziga xosligi bilan go'zaldir, degan oddiy haqiqat unutildi. Ayni shu sababli 1985 yilda boshlangan qayta qurishni xalq yo'qolgan umidlarning qaytishi sifatida baholadi. Bu jarayon odamlarning milliy o'zlikni anglashi, ijtimoiy mentaliteti misli ko'rilmagan darajada kuchayishiga olib keldi. Milliy o'zlikni anglash, ijtimoiy mentalitetning o'sishi – progressiv hodisa, milliy istiqloqlarning muhim yutug'i, davlatimizning insonparvarlashuv va demokratiyalashuv yo'lidagi kelgusi qadamlarini belgilovchi muhim omildir. Tabiiyki, milliy o'zlikni anglashning o'sishi bilan har bir kishining o'z negizlariga bo'lgan qiziqishi ham kuchayib boradi.

Ayni shu sababli milliy o'zlikni anglashning o'sishi ochiq va oshkora o'zaro aloqalarni nafaqat istisno qilmaydi, balki taqozo etadi. Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Bizning maqsadimiz – yurtimizda xalq hokimiyatini nomiga emas, balki amalda joriy qilish mexanizmlarini mustahkamlashdash iborat". Bunda yakka va umumiyning dialektikasi bo'rtib namoyon bo'ladi. Shaxsiy nuqtai nazardan insonning millat darajasigacha yuksalishi muhim bo'lsa, butun xalq nuqtai nazaridan umumiylik umuminsoniy qadriyatlar manbai sifatida amal qiladi. Umumiydan uning qadriyatlarini o'zlashtirishgina emas, balki uni o'z milliy qadriyatlari bilan boyitish ham muhimdir.

Ijtimoiy mentalitetning shakllanishida milliy o'zlikni anglashning rolini talqin qilish sohasida to'plangan muammolarning murakkabligiga xolisona baho bergan holda quyidagi vazifalarni qayd etish mumkin:

Birinchi – jamiyat tubdan yangilanayotgan sharoitlarda milliy o'zlikni anglashning o'sishi zarur. Bunga erishish uchun davlat: a) o'z yaxlitligi va uzviyligini demokratik yo'llar bilan, ya'ni turli xil, ba'zan qarama-qarshi manfaatlarni e'tibordan soqit etish orqali emas, balki ularni demokratik usulda muvofiqlashtirish orqali ta'minlashi; b) yuz berishi mumkin bo'lgan konfliktlarni demokratik yo'llar bilan samarali yechish uchun odamlarning manfaatlarini muvofiqlashtirish davlat-huquqiy mexanizmini yaratishi lozim.

Ikkinchi – turg'unlik yillarida to'plangan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni boshqaruvni markazlashtirish va sun'iy "jadallashtirish" yo'li bilan emas, balki bundan har bir odamning

FALSAFA

manfaatdorligini ta'minlash orqali hal qilish kerak. Bosh vazifalardan biri – kishilarning mustaqilligi uchun yanada kengroq sharoitlar yaratish, ular o'z ilmiy faoliyatining pirovard natijalarini yaxshilashdan jamiyatning farovonligi asosi sifatida manfaatdor bo'lishlarini ta'minlashdir.

Shuni qayd etish lozimki, milliy o'zlikni anglash va mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi o'sishi sharoitlarida ma'naviy faoliyatning cheklanishi jamiyat hayotidagi demokratik jarayonlarning faollik darajasi pasayishiga olib keladi. Ayni holda davlatning umumiy siyosati har bir insonning moddiy va ma'naviy ehtiyojlari qondirilishini ta'minlash zaruriyatidan kelib chiqishi lozim.

Ijtimoiy mentalitet, avvalambor, tom ma'nodagi milliylikdan – faqat u to'plagan tajriba orqali vujudga keladi. Bu juda muhim va murakkab jarayonni e'tiborga olmaslik milliy mahdudlikka, o'z ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy qobig'iga o'ralishga sabab bo'ladi, qolaversa, u rivojlanishning kuchaygan ehtiyojlarini qondiruvchi yangi jarayonlar va hodisalarning sintezi asosida shakllanadi. Milliy o'zlikni anglashning shakllanishi va amal qilishining asosi sifatida millatning moddiy va ma'naviy ehtiyojlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan xalqning milliy manfaatlari amal qiladi.

Individuum darajasida milliy o'zlikni anglash, milliy o'ziga xoslik subyektiv darajada butun ijtimoiy borliq kabi idrok etiladi. Bu amalda "milliy o'zlikni anglash shaxs darajasida qon belgisiga ko'ra" amalga oshirilishini anglatadi. Shuni qayd etish lozimki, shaxsning ijtimoiy mentaliteti shaxs darajasida milliy o'zlikni anglashning tarkibiy elementlaridan biri hisoblanadi. Sivilizatsiyaning yaxlitlik darajasi ortib borayotgan sharoitlarda "sof" milliy o'zlikni anglash o'z-o'zicha mavjud bo'lishi mumkin emas. Boshqa jarayonlar kabi, shaxsning milliy o'zlikni anglashi ham mahdudlik sharoitida rivojlana olmaydi, uning milliy o'zlikni anglashining o'sishi o'zining madaniy merosini yanada chuqurroq bilish va uni xalq mulkiga aylantirish uchun o'z ma'naviy ildizlariga yanada teranroq nazar tashlashga intilishiga imkoniyat yaratadi.

Mazkur jarayonda milliylikning rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratish, insonlar o'z madaniy merosini o'zlashtirishiga monelik qilmaslik lozimligini e'tiborga olish zarur. Ushbu jarayon millatchilikning bir ko'rinishi sifatida baholanishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Turli millatlarning moddiy va ma'naviy qadriyatlarni ayirboshlash erkin va demokratik shakllari doirasini kengaytirish muhimdir. Ijtimoiy mentalitet insonning ma'naviy uyg'onishi ifodasi sifatida biz yashayotgan davrga xos va davlat tomonidan, aql va irodaning kuch-qudratini tarixiy madh etish bilangina emas, balki uning ijodi va shaxsiyatini tom ma'noda ozodlikka chiqarish harakatlari bilan ham qo'llab-quvvatlanishi lozim. Milliy o'zlikni anglash va ijtimoiy mentalitetning mazmun va mohiyati har bir insonning, o'z qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish, umuminsoniy madaniyatning oliy yutuqlarini o'zlashtirish orqali o'zini o'zi kamol toptirish uchun zaruriy va yetarli imkoniyatga ega bo'lish bilan belgilanadi.

XULOSA

Har bir millatning kelajagi xalqning ijtimoiy mentaliteti mamlakatning qaysi yo'ldan rivojlanishiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Agar uning o'sishi amalda milliy egoizmga olib kelsa, eski milliy siyosat andozalari va tamoyillariga qarshi tabiiy kurash izolyatsionizmga sabab bo'lsa, "o'zlikni anglashning optimistik salohiyati ro'yobga chiqishi mumkin emas". Shaxsning ijtimoiy mentaliteti darajasining madaniy yuksalishini ta'minlovchi milliy uyg'onishda ma'rifat va vatanparvarlik ulkan rol o'ynaydi. Ayni shu omillar uning poklanishiga, soxta ideallar va g'oyaviy illyuziyalardan xalos bo'lishiga ko'maklashishi, halollik, ezgulik va haqiqatning qaror topishiga imkoniyat yaratishi mumkin. Ma'rifat va vatanparvarlikdan xalqni kamsitgan va kamsituvchi hamma narsaga chuqur nafrat shakllarini topish va targ'ib qilishnigina emas, balki ezgulik va olijanoblik urug'ini sochuvchi hamma narsalarni ulug'lashni ham kutish o'rinli bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абилов У. Оптимизм и возрастание национального самосознания узбекского народа // Мустақил Ўзбекистон фалсафа фанининг долзарб муаммолари. -Тошкент, Фан, 1997. - Б.104.
2. Атамуратов С. Национальное самосознание и интернациональное воспитание. -Тошкент: Узбекистон, 1991.
3. Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество. Опыт социального прогнозирования. Москва: Терра, 1999.
4. Грачев Г.В. Информационно-психологическая безопасность личности: Теория и технология психологической защиты. Дис. док.пси. наук. - М.: 2000, -С. 13.
5. Закиров Ш.М. Национальная независимость и национальное самосознание // Мустақил Ўзбекистон фалсафа фанининг долзарб муаммолари. - Тошкент, Фан, 1998. - Б.117.
6. Ясин Е. Модернизация и общество // Вопросы экономики. 2007. № 5.– С. 5